V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

TUXTAYEV ERKIN EGAMBERDIYEVICH

DISKRET VAQTLI VA DISPERSIYASI CHEKSIZ BO‘LGAN TARMOQLANUVCHI TASODIFIY JARAYONLARNING ASIMPTOTIK STRUKTURASI

01.01.05 – Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent–2025

UDK: 519.218.2

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical sciences

.

V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

TUXTAYEV ERKIN EGAMBERDIYEVICH

DISKRET VAQTLI VA DISPERSIYASI CHEKSIZ BO‘LGAN TARMOQLANUVCHI TASODIFIY JARAYONLARNING ASIMPTOTIK STRUKTURASI

01.01.05 – Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent–2025

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, Fan va Innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.PhD/FM1343 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (https://kengash.mathinst.uz) va “ZiyoNet” ta’lim portalida (http://www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Imomov A’zam Abduraximovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Miraxmedov Sherzod Adilovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Azimov Jahongir Baxramovich fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti**

Dissertatsiya himoyasi V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil « 16 » dekabr kuni soat 17:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 9-uy. Tel.: (+998 71) 207-91-40, e-mail: uzbmath@umail.uz, Website: www.mathinst.uz).

Dissertatsiya bilan V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№218-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 9-uy. Tel.: (+998 71) 207-91-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil « 02 » dekabr kuni tarqatildi.
(2025-yil « 02 » dekabrdagi 2-raqamli reestr bayonnomasi).

U.A. Rozikov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, f.-m.f.d., akademik

J.K. Adashev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.-m.f.d., katta ilmiy xodim

Y.M. Xusanbayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar rais o‘rinbosari, f.-m.f.d., dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo miqyosida fundamental fanlar sohasida olib borilayotgan koʻpgina ilmiy-amaliy tadqiqotlar tarmoqlanuvchi tasodifiy jarayonlarni tatbiq qilishga keltiriladi. Tarmoqlanuvchi jarayonlar nazariyasi – bu matematikaning keng doiradagi nazariy va amaliy qoʻllanmalariga ega boʻlgan boʻlimi boʻlib, u biror taqsimot qonuni boʻyicha rivojlanayotgan zarrachalar populyatsiyasining evolyutsiya qonuniyatlarini oʻrganadi. XX asrning 40-yillarida alohida ilmiy yoʻnalish sifatida paydo boʻlgan bu nazariya oʻzi oʻrganayotgan muammolar va hodisalarning amaliy va vizual tabiati tufayli hanuzgacha zamonaviy ehtimollar nazariyasining faol rivojlanayotgan sohasi boʻlib, u nazariy fizika, molekulyar biologiya, kimyo, demografiya va tibbiyotning koʻpgina muammolari boʻyicha tadqiqot mavzusi boʻlib qolmoqda.

Tarmoqlanuvchi tasodifiy jarayonlar nazariyasini qoʻllash doirasini kengaytirish uning nazariy qiziqishlari va amaliy qoʻllanilishi bilan bogʻliq. Hozirgi vaqtda ushbu qoʻllanmalar doirasi, xususan, turli biologik populyatsiyalar evolyutsiyasi qonunlarini tavsiflash, ommaviy xizmat koʻrsatish nazariyasi muammolarini oʻrganish va zarrachalar populyatsiyasining evolyutsiyasi bilan bogʻliq boʻlgan tabiiy va texnik hodisalarning boshqa koʻplab muammolarini qamrab oladi. Ushbu nazariyaning rivojlanishi, bir tomondan, klassik modellarni chuqur oʻrganish talabi bilan bogʻliq boʻlsa, ikkinchi tomondan, oʻrganilayotgan real hodisalarning mohiyatini chuqur va aniq tasvirlaydigan zarrachalar hosil boʻlishining yangi sxemalarini kashf qilish bilan tavsiflanadi. Shu munosabat bilan, mavjud natijalarni klassik modellar va obyektiv sharoitlarga eng mos keladigan yangi natijalarni aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar doirasida bosqichma-bosqich takomillashtirish dolzarb vazifadir.

Mamlakatimizda amaliy ahamiyatga ega boʻlgan fundamental fanlarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Zamonaviy ilm-fan oldida fundamental tadqiqotlarni amaliyotga yaqinlashtirishdek muhim vazifa turibdi. Ushbu muammoni hal qilishda tarmoqlanuvchi jarayonlar nazariyasi yetakchi oʻrinlardan birini egallashi mumkin. Bir qator sohalardagi dolzarb muammolarni hal qilishga qaratilgan ushbu nazariyani tatbiq etish doirasida sezilarli natijalarga erishildi. Vazirlar Mahkamasining qarorida matematika fanlarining ustuvor yoʻnalishlari, xususan, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika boʻyicha xalqaro standartlar darajasida ilmiy tadqiqotlar olib borish ilmiy tadqiqotning asosiy vazifalari va yoʻnalishlari ekanligi qayd etildi. Mazkur qaror ijrosini ta’minlashda[1] tarmoqlanuvchi tasodifiy jarayonlar nazariyasi boʻyicha keyingi tadqiqotlarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi

---

[1] Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-iyuldagi “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi № PQ-4387-son qarori

to‘g‘risida”gi Farmoni, 2019-yil 9-iyuldagi PQ-4387-son “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-son “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tarmoqlanuvchi tasodifiy jarayonlarni o‘rganish bo‘yicha dastlabki tadqiqotlar X.Vatson, F.Galton, A.Kolmogorov, N.Dmitriyev, B.Sevastyanov, R.Bellman, T.Xarris, V.Zolotarev, A.Skoroxod, A.Zubkov va boshqalar tomonidan olib borilgan. Diskret vaqtli tarmoqlanuvchi jarayonlari davom etish ehtimolligining asimptotik holati bo‘yicha dastlabki natijalar A. Kolmogorov, uzluksiz vaqtli Markov tarmoqlanuvchi jarayonlari uchun esa B. Sevastyanov ishlarida olingan. Ushbu olingan natijalar V.Zolotarev, V.Chistyakov, S.Nagayev, A.Nagayev, I.Badalbayev, S.Xitkot, E.Seneta, D.Vir-Jonslarning ishlarida takomillashtirilgan.

A.Kolmogorov tomonidan tarmoqlanuvchi jarayonlar davom etish ehtimolligining asimptotikasi uchun bosh hadlar aniqlashtirilgan. Hozirgi vaqtda birinchilardan bo‘lib jarayonning so‘nmaslik sharti ostida zarrachalar sonining taqsimoti uchun limit teoremalar A.Yaglom, T.Xarris, Lamperti va P.Ney, B.Sevastyanov ishlarida o‘rganilgan. Jarayon kritik holatda, ya’ni, bitta zarracha avlodlari taqsimotining o‘rtacha soni 1 ga teng bo‘lganda, A.Yaglom jarayonning ayni vaqtda so‘nmaganlik sharti ostidagi taqsimoti ko‘rsatkichli qonunga yaqinlishishini ko‘rsatadi. V.Chistyakov tomonidan 1957 yilda e’lon qilingan ishda birinchilardan bo‘lib, uzluksiz vaqtli markov tarmoqlanuvchi jarayonlari uchun lokal limit teorema isbotlangan. Bu teoremaning Galton-Vatson tarmoqlanuvchi jarayoni uchun analogi G.Kesten, P.Ney va F.Spitserlarning ishida keltirilgan va isbotlangan. Tarmoqlanuvchi jarayonlar nazariyasida Karamata ma’nosida regulyar o‘zgaruvchi funksiyalar nazariyasining tatbiqlari ayniqsa muhimdir. Aynan shu nazariyadan foydalanib, 1957 yilda V.Zolotarev uzluksiz vaqtli tarmoqlanuvchi tasodifiy jarayonlarda bitta zarracha qoldiradigan avlodlar soni taqsimotining ikkinchi tartibli momenti chekli bo‘lmagan holda lokal limit teoremalar oldi. Keyinroq, 1968 yilda R.Slack o‘z ishlarida Galton-Vatson tarmoqlanuvchi jarayoni uchun Zolotarev tomonidan olingan natijalarning analoglarini o‘rnatdi.

Uzluksiz vaqtli immigratsiyali tarmoqlanuvchi jarayonlar dastlab 1957 yilda B.Sevastyanovning ishida qaralgan bo‘lsa, bu modelning diskret holati S.Xitkotning ishlarida o‘rganilgan. E.Senetaning ishida immigratsiyali Galton-Vatson tarmoqlanuvchi jarayonining invariant o‘lchovini hosil qiluvchi funksiyasi uchun funksional tenglamalar topilgan. A. Peyksning ishlarida bu jarayonlar uchun lokal limit teoremalar isbotlab berildi va ma’lum shartlar bajarilganda jarayonning o‘tish ehtimoli cheksizlikda regulyar o‘zgaruvchilik xossasiga ega ekanligi aniqlandi. XX asrning 90-yillarida I.Badalbayev va I.Rahimovlar tomonidan immigratsiyasi bir jinsli bo‘lmagan tarmoqlanuvchi jarayonlarni o‘rganishga kirishildi. Shuningdek, 2001 yilda Sh.Formanov va J.Azimovlar tomonidan holatga bog‘liq immigratsiyali Markov tarmoqlanuvchi jarayonlari o‘rganildi. Y.Xusanboyevning ishlarida deterministik jarayonlarga sust yaqinlashishni tadqiq qilindi va immigratsiyali tarmoqlanuvchi jarayonlarining tebranishlari uchun bir qator limit teoremalar isbotlandi. A.Kolmogorov tomonidan tarmoqlanuvchi jarayonlar davom etish ehtimolligining asimptotikasi uchun bosh hadlar aniqlashtirilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qarshi davlat universiteti “Algebra va geometriya” kafedrasining “**Stoxastik analiz va aktuar matematika**” (2020-2025 yillar) mavzusidagi ilmiy-tadqiqot yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ikkinchi tartibli chekli momenti mavjud bo‘lmagan oddiy va immigratsiyali kritik Galton-Vatson tarmoqlanuvchi tasodifiy jarayonlarning asimptotik tuzilishini o‘rganish va ular uchun limit teoremalar olishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

sekin o‘zgaruvchi funksiyalarning xossalaridan foydalanib, dispersiyasi cheksiz bo‘lgan kritik tarmoqlanuvchi tasodifiy jarayonlarning o‘tish ehtimolliklari uchun limit teoremalar isbotlangan;

bitta zarrachadan boshlanuvchi va dispersiyasi cheksiz bo‘lgan kritik tarmoqlanuvchi tasodifiy jarayonlar asosiy lemmasining analoglarini olish;

immigratsiya qonuni cheksiz birinchi momentga va aborigen zarrachalar o‘zgarish qonuni cheksiz dispersiyaga ega bo‘lgan immigratsiyali kritik diskret vaqtli tarmoqlanuvchi jarayonlarining ergodiklik xususiyatini o‘rganish;

immigratsiyali tarmoqlanuvchi jarayonlarda invariant o‘lchovlarga yaqinlashish tezligini baholash.

Tadqiqotning obyekti: Diskret vaqtli tarmoqlanuvchi tasodifiy jarayonlar, immigratsiyali tarmoqlanuvchi tasodifiy jarayonlar.

Tadqiqotning predmeti: hosil qiluvchi funksiyalar, sekin o‘zgaruvchi funksiyalar, regulyar o‘zgaruvchi funksiyalar, tarmoqlanuvchi jarayonlarning momentlari, markov zanjiri, o‘tish ehtimolliklari, invariant o‘lchovlar.

Tadqiqotning usullari: Dissertatsiya ishida ehtimolliklar nazariyasi usullari, hosil qiluvchi funksiyalarning analitik usullari va asimptotik analiz usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

sekin o‘zgaruvchi funksiyalarning xossalaridan foydalanib, dispersiyasi cheksiz bo‘lgan kritik tarmoqlanuvchi tasodifiy jarayonlarning o‘tish ehtimolliklari uchun limit teoremalar isbotlangan;

dispersiyasi cheksiz bo‘lgan kritik Galton-Vatson tarmoqlanuvchi jarayonlar nazariyasining asosiy lemmasi analoglari isbotlangan;

immigratsiya qonuni cheksiz birinchi momentga va aborigen zarrachalar o‘zgarish qonuni cheksiz dispersiyaga ega bo‘lgan immigratsiyali kritik diskret vaqtli tarmoqlanuvchi jarayonlarining ergodiklik xususiyati aniqlangan, unga doir yangi teoremalar isbotlangan;

immigratsiyali Galton-Vatson tarmoqlanuvchi jarayonlarida invariant o‘lchovlarga yaqinlashish tezligi baholangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari. Dissertatsiya natijalari va tadqiqot usullari populyatsiya jarayonlarida ehtimollik usullarini qo‘llash bilan bog‘liq vazifalar doirasini kengaytirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ehtimolliklar nazariyasining ma’lum nazariy va analitik usullaridan foydalanish, sekin o‘zgaruvchi funksiyalar nazariyasi va asimptotik analizning fundamental natijalarini qo‘llash orqali qat’iy matematik mulohazalar ketma-ketligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati olingan natijalardan zarrachalar taqsimotining dispersiyasi cheksiz bo‘lgan immigratsiyali tarmoqlanuvchi jarayonlarni o‘rganishda qo‘llanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati zarrachalar populyatsiyasi evolyutsiyasi to‘g‘risida xulosalar chiqarish, olingan limit teoremalar biologiya, tibbiyot, kimyo kabi sohalarning ba’zi masalalarini yechish imkonini berishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Diskret vaqtli va dispersiyasi cheksiz bo‘lgan tarmoqlanuvchi tasodifiy jarayonlarning asimptotik strukturasi bo‘yicha olingan natijalar asosida:

diskret tipdagi kritik tarmoqlanuvchi jarayonlarida dispersiyasi cheksiz bo‘lganda, davom etish ehtimolligi uchun asimptotik yoyilmalardan STEM-22-226 raqamli “Favqulodda vaziyatlarda transport yo'nalishlarini rejalashtirish uchun fazaviy ehtimollik modeli” mavzusidagi xorijiy loyihada limit teoremalarni isbotlash va ba’zi bir populyatsiya jarayonining xulosasini qurishda foydalanilgan (Ivan Jakashivili nomidagi Tbilisi davlat universitetining 2024 yil 7 oktabrdagi № 21/28-02-sonli ma’lumotnomasi). Ilmiy natijani qo‘llanilishi yo‘lga bog‘liq bo‘lgan Broun funksiyalarining stoxastik integral ko‘rinishlarini qurish imkonini bergan;

immigratsiyali tarmoqlanuvchi jarayonlar avlodlari ketma-ketligining rekurrentlik xossalaridan va qoldiq hadli Karamata funksiyalari orqali ifodalangan hosil qiluvchi funksyalarning xossalaridan xorijiy ilmiy jurnaldagi maqolalarda Puasson tipidagi immigratsiyali tarmoqlanuvchi tasodifiy jarayonlari o‘tish ehtimolliklarini asimptotik tavsiflashda hamda tasodifiy miqdorlar yig‘indilari uchun limit teoremalarni isbotlashda foydalanilgan (Stochastic models, 2025, 41(4); Mathematical communication, 2025, 30(2), 231-241; Stochastic Analysis and Applications, 2024, 42(4), 828-841). Ilmiy natijalarning qo‘llanilishi Puasson immigratsiyali tarmoqlanuvchi tasodifiy jarayonlarda limit taqsimotlar uchun yangi teoremalarni isbotlashni va tasodifiy miqdorlar yig‘indilarining limit taqsimotini baholash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqotning asosiy natijalari 7 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 21 ta ilmiy ish chop etilgan bo‘lib, shundan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 5 tasi xorijiy va 3 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan bo‘lib, uning umumiy hajmi 117 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asosli ravishda tahlil qilingan bo‘lib, tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlari bilan bog‘liqligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliy joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi haqida ham batafsil ma’lumotlar taqdim etilgan.

Dissertatsiyaning **“Diskret vaqtli markov tarmoqlanuvchi tasodifiy jaryonlari”** deb nomlangan birinchi bobida Markov zanjiri, Galton–Vatson (GV) tarmoqlanuvchi jarayonlari, immigratsiyali Galton–Vatson tarmoqlanuvchi jarayonlari tasnifi, hosil qiluvchi funksiyasi, sonli xarakteristikalari uchun formulalar hamda bu jarayonlarning xossalarini ifodalovchi mavjud natijalar, teoremalar va faktlar keltirilgan.

Birinchi bobning birinchi paragrafida Markov zanjirining ta’rifi, holatlar klassifikatsiyasi, Kolmogorov-Chepmen tenglamasi, zanjirning qaytuvchi bo‘lish shartini ifodalovchi tasdiq, invariant o‘lchov, zanjirning ergodik bo‘lishining asosiy sharti keltirilgan.

Birinchi bobning ikkinchi paragrafida Galton-Vatson immigratsiyli (GVI) tarmoqlanuvchi jarayonlarining strukturasi va hosil qiluvchi funksiyasiga doir ma’lumotlar berilgan, GVI tarmoqlanuvchi jarayonlar nazariyasidagi asosiy faktlar keltirilgan. Vaqtning ixtiyoriy $n \in \mathbb{N}_0$, bu yerda $\mathbb{N}_0 = \{0\} \bigcup \mathbb{N}$ va $\mathbb{N} = \{1, 2, 3, \ldots\}$, momentida tizimdagi zarrachalar soni X_n quyidagi rekurrent munosabat orqali aniqlansin:

$$X_0 = i,\ X_{n+1} = \xi_{n1} + \xi_{n2} + \cdots + \xi_{nX_n} + \eta_{n+1}, \quad n \in \mathbb{N}_0,$$

bu yerda $\{\xi_{nk}\}$ – bir xil taqsimlangan o‘zaro bog‘liqsiz tasodifiy miqdorlar ketma-ketligi bo‘lib, u bevosita n-avlod k-zarrachasining avlodlari sifatida talqin qilinadi, η_n esa n-vaqtda kirib keluvchi ξ_{nk} dan bog‘liqsiz bo‘lgan bir xil taqsimlangan o‘zaro bog‘liqsiz tasodifiy miqdorlar. Ushbu $f(s) := \sum_{j\in\mathbb{N}_0} p_j s^j$ va $h(s) := \sum_{j\in\mathbb{N}_0} h_j s^j$, $s \in [0,1]$, hosil qiluvchi funksiyalarni kiritamiz, bunda $\mathsf{P}\left(\xi_{nk} = j\right) = p_j$ hamda $\mathsf{P}\left(\eta_n = j\right) = h_j$. Bunda immigratsiyali Galton-Vatson tarmoqlanuvchi tasodifiy jarayonining hosil qiluvchi funksiyasi

$$\mathcal{P}_n^{(i)}(s) = \left[f_n(s)\right]^i \prod_{k=0}^{n-1} h\left(f_k(s)\right),$$

ko‘rinishda bo‘ladi, bu yerda $f_n(s)$ hosil qiluvchi funksiya $f(s)$ ning n-karrali iteratsiyasi, ya’ni ushbu $f_n(s) = f_{n-1}\left(f(s)\right) = f\left(f_{n-1}(s)\right)$ munosabat o‘rinli.

Birinchi bobning uchinchi paragrafida G-V tarmoqlanuvchi jarayonlarining tasnifi va asimptotik xossalari bayon qilingan.

Birinchi bobning to‘rtinchi paragrafida esa immigratsiyali Galton-Vatson jarayonlarining asimptotik strukturasi, ergodiklik xossalari va invariant o‘lchovlar o‘rganilgan. Shuningdek, superkritik GVI tarmoqlanuvchi jarayoni holatlari fazosining $\lambda = \lambda_{\mathcal{S}}$ parchalanish parametri qiymatini topilgan va uning musbat qaytuvchi ekanligi isbotlangan.

Dissertatsiyaning **“Regulyar o‘zgaruvchi funksiyalar va ularning tatbiqlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida regulyar o‘zgaruvchi funksiyalar nazariyasining fundamental teoremalari, Karamataning integral teoremalari deb ataluvchi teoremalar qaralgan. Shuningdek, regulyar o‘zgarish xossasi bilan tarmoqlanish qonunlari orasidagi bog‘liqlik o‘rganilgan. Kritik tarmoqlanuvchi tasodifiy jarayonning reproduktiv qonunining dispersiyasi cheksiz bo‘lgan hol uchun asosiy lemmaning analogi keltirilgan va isbotlangan.

Ikkinchi bobning birinchi paragrafida regulyar o‘zgaruvchi funksiyaning asosiy ta’rifi va unga oid tushunchalar, regulyar o‘zgaruvchi funksiyalar nazariyasining fundamental teoremalari keltirilgan.

Biror $[a,\infty) \subset \mathbb{R}_+$, bu yerda $\mathbb{R}_+ := [0,\infty)$ yarim o‘qda aniqlangan musbat va o‘lchovli $L(x)$ funksiya cheksizlikda (Karamata ma’nosida) *sekin o‘zgaruvchi* funksiya deyiladi, agarda ixtiyoriy $\lambda \in \mathbb{R}_+$ uchun

$$\lim_{x\to\infty} \frac{L\left(\lambda x\right)}{L(x)} = 1$$

munosabat bajarilsa.

Cheksizlikda sekin o‘zgaruvchi funksiyalar sinfini $\mathcal{S}_\infty$ bilan belgilaymiz.

Biror $[a,\infty) \subset \mathbb{R}_+$ yarim o‘qda aniqlangan musbat va o‘lchovli $R(x)$ funksiya cheksizlikda *regulyar o‘zgaruvchi* funksiya deyiladi, agarda u quyidagi ko‘rinishda ifodalanishi mumkin bo‘lsa:

$$R(x) = x^{\rho} L(x),$$

bu yerda $L(x) \in \mathcal{S}_{\infty}$ va $\rho \in \mathbb{R}_{+}$ parametr $R(x)$ funksiyaning regulyar o‘zgarish tartibi deb ataladi.

Ikkinchi bobning ikkinchi paragrafida cheksizlikda regulyar o‘zgaruvchi funksiyalar xosmas integrallarining asimptotik xossalari o‘rganilgan bo‘lib, Karamataning integral teoremalari keltirilgan va isbotlangan.

Ikkinchi bobning uchinchi paragrafida qoldiq hadli sekin o‘zgaruvchi funksiyaning tavsifi va xossalari qaralgan bo‘lib, bu funksiya uchun teoremalar olingan va isbotlangan.

Biror $r(x)$ funksiya $x \in \mathbb{R}_{+}$ qiymatlarda aniqlangan bo‘lib, $r(x) \in \mathbb{R}_{+}$ va $x \to \infty$ da $r(x) \downarrow 0$ bo‘lsin. U holda $L(x)$ funksiya $r(x)$ *qoldiq hadli sekin o‘zgaruvchi funksiya* deyiladi, agarda u ixtiyoriy $\lambda \in \mathbb{R}_{+}$ uchun quyida keltirilgan shartlarning birini qanoatlantirsa :

SR1. $\omega_{\lambda}(x) = \mathcal{O}\big(r(x)\big),\ x \to \infty$;

SR2. $\omega_{\lambda}(x) \sim const(\lambda) r(x),\ x \to \infty$;

SR3. $\omega_{\lambda}(x) = o\big(r(x)\big),\ x \to \infty$.

Qoldiq hadi $r(x) = \mathcal{O}\Big(L(x)\big/x^{\sigma}\Big)$, $\sigma \in \mathbb{R}_{+}$ bo‘lgan va **SR1 – SR3** shartlardan birini qanoatlantiruvchi qoldiq hadli sekin o‘zgaruvchi funksiyalar sinfini $\mathcal{S}_{\infty}(\omega)$ orqali belgilanadi.

1-teorema. *Agar* $L(x) \in \mathcal{S}_{\infty}(\omega)$ *bo‘lsa, u holda* $C_L := \lim_{x\to\infty} L(x)$ *musbat va chekli. Bundan tashqari,* ***SR1*** *shart uchun quyidagi asimptotik munosabatlar o‘rinli bo‘ladi:*

$$\eta(x) = C_{\eta} + \mathcal{O}\Big(1\big/x^{\sigma}\Big), \quad x \to \infty \tag{a}$$

$$\varepsilon(x) = \mathcal{O}\Big(1\big/x^{\sigma}\Big), \quad x \to \infty \tag{b}$$

$$L(x) = C_L + \mathcal{O}\Big(1\big/x^{\sigma}\Big), \quad x \to \infty \tag{c}$$

Aksincha, agar biror $\big[a,\infty\big) \subset \mathbb{R}_{+}$ *yarim o‘qda aniqlangan musbat va o‘lchovli* $L(x)$ *funksiya uchun teorema tasdig‘ida keltirilgan (c) asimptotik munosabat bajarilsa,* $L(x) \in \mathcal{S}_{\infty}(\omega)$ *bo‘ladi.*

2-teorema. *Biror differensiallanuvchi* $L(x) \in \mathcal{S}_{\infty}(\omega)$ *funksiya uchun qoldiq* $\omega_{\lambda}(x) = \mathcal{O}\Big(L(x)\big/x^{\sigma}\Big)$, $\sigma \in \mathbb{R}_{+}$, *bo‘lsin. U holda* $R(x) = x^{\rho} L(x) \in \mathcal{R}_{\infty}^{\rho}$ *funksiya uchun quyidagi asimptotik munosabat o‘rinli bo‘ladi:*

$$\frac{xR'(x)}{R(x)} = \rho + \mathcal{O}^*\left(1\big/x^{\sigma}\right), \quad x \to \infty .$$

3-teorema. *Biror* $L(x) \in \mathcal{S}_{\infty}(\omega)$ *funksiya biror* $\left[a, \infty\right) \subset \mathbb{R}_{+}$ *to'plamda lokal chegaralangan bo'lib, uning uchun* $\omega_{\lambda}(x) = \mathcal{O}\left(L(x)\big/x^{\sigma}\right)$, $\sigma \in \mathbb{R}_{+}$ *bo'lsin. U holda barcha* $\alpha \in \left(-1, \infty\right)$ *sonlar uchun* $x \to \infty$ *da*

$$\int_a^x t^{\alpha} L(t)dt = \frac{1}{\alpha+1} x^{\alpha+1} L(x)\left(1 + \mathcal{O}\left(1\big/x^{\beta}\right)\right),$$

bu yerda $\beta = \min\left(\sigma, \alpha+1\right)$.

4-teorema. *Har qanday* $L(x) \in \mathcal{S}_{\infty}$ *funksiya va barcha* $\alpha \in \left(-\infty, -1\right)$ *sonlar uchun* $\int_a^x t^{\alpha} L(t)dt$ *integral yaqinlashadi va* $L_0(t)\big/L(t) = 1 + \mathcal{O}\left(\varepsilon(t)\right)$, $t \to \infty$ *xossa bilan aniqlanuvchi shunday* $L_0(x)$ *mavjudki,* $\int_a^x t^{\alpha} L(t)dt = \frac{1}{\left|\alpha+1\right|}\left[\frac{1}{a^{\left|\alpha+1\right|}} L_0(a) - \frac{1}{x^{\left|\alpha+1\right|}} L_0(x)\right]$ *tenglik o'rinli bo'ladi.*

Bu teoremadan, qo'shimcha shartlarda, quyidagi natija kelib chiqadi.

5-teorema. *Berilgan* $L(x) \in \mathcal{S}_{\infty}(\omega)$ *funksiyaning qoldiq hadi* $\omega_{\lambda}(x) = \mathcal{O}\left(L(x)\big/x^{\sigma}\right)$, $\sigma \in \mathbb{R}_{+}$, *ko'rinishda bo'lsin. U holda barcha* $\alpha \in \left(-\infty, -1\right)$ *qiymatlarda* $x \to \infty$ *da ushbu*

$$\int_x^{\infty} t^{\alpha} L(t)dt = \frac{1}{\left|\alpha+1\right|} \frac{1}{x^{\left|\alpha+1\right|}} L(x)\left(1 + \mathcal{O}^*\left(1\big/x^{\sigma}\right)\right)$$

asimptotik baho o'rinli bo'ladi.

Ikkinchi bobning to'rtinchi paragrafi regulyar o'zgaruvchi funksiyalarning tarmoqlanuvchi tasodifiy jarayonlar nazariyasidagi tatbiqlariga bag'ishlangan.

Tarmoqlanish qonuni bilan berilgan jarayonning hosil qiluvchi funksiyasi ushbu

$$f(s) = s + \left(1-s\right)^{1+\nu} \mathcal{L}\left(\frac{1}{1-s}\right) \qquad [f_{\nu}]$$

ko'rinishda bo'lgan $\left\{Z_n, n \in \mathbb{N}_0\right\}$ G-V tarmoqlanuvchi jarayonini qaraylik, bunda $\nu \in (0,1]$ va $\mathcal{L}(\cdot) \in \mathcal{S}_{\infty}$. Bu shart tarmoqlanish qonunining dispersiyasi cheksiz bo'lishi mumkin bo'lgan kritik G-V jarayonini ifodalaydi.

Endi $\left\{Z_n\right\}$ jarayonning ushbu $\mathsf{p}_j(n) = \mathsf{P}\left(Z_n = j \middle| Z_0 = 1\right)$ o'tish ehtimolliklariga mos hosil qiluvchi funksiyani qaraymiz: $f_n(s) = \sum_{j \in \mathcal{S}_0} \mathsf{p}_j(n) s^j$, бунда $\mathcal{S}_0 = \left\{0\right\} \cup \mathcal{S}$ ва $\mathcal{S} \subset \mathbb{N}$. Quyidagi $R_n(s) := 1 - f_n(s)$ funksiyaning asimptorik yoyilmasini beruvchi lemma kritik tarmoqlanuvchi jarayonlar nazariyasi Asosiy Lemmasining analogidir:

1-lemma. *Hosil qiluvchi funksiyasi* $[f_\nu]$ *ko'rinishda berilgan kritik tarmoqlanuvchi jarayonlar uchun quyidagi asimptotik munosabat o'rinli:*

$$R_n(s) = \frac{\mathcal{N}(n)}{(\nu n)^{1/\nu}}\left[1 - \frac{\mathcal{U}_n(s)}{\nu n}\right],$$

bu yerda $\mathcal{N}(\cdot) \in \mathcal{S}_\infty$ *va* $\mathcal{N}(n)\mathcal{L}^{1/\nu}\left(\frac{(\nu n)^{1/\nu}}{\mathcal{N}(n)}\right) \to 1, \quad n \to \infty$ *hamda* $\mathcal{U}_n(s)$ *funksiya quyidagi shartlarni qanoatlantiradi:*

1. $\mathcal{U}_n(s) \to U(s)$, $n \to \infty$ *va* $U(f(s)) = U(s) + 1$;
2. *barcha tayinlangan* $n \in \mathbb{N}$ *qiymatlar uchun* $\lim_{s\uparrow 1} \mathcal{U}_n(s) = \nu n$;
3. *barcha tayinlangan* $n \in \mathbb{N}$ *qiymatlar uchun* $\mathcal{U}_n(0) = 0$.

Dissertatsiyaning **"Kritik tarmoqlanuvchi Galton-Vatson jarayonlari uchun limit teoremalar"** deb nomlangan uchinchi bobida kritik G-V tarmoqlanuvchi jarayonlari qaralgan. Kritik jarayonlar o'tish ehtimolliklari hosil qiluvchi funksiyasining asimptotik yoyilmasini ifodalovchi tasdiqning minimal shartlardagi yangi analoglari topilgan. Bu tasdiq klassik adabiyotlarda kritik jarayonlar nazariyasining Asosiy Lemmasi deb nomlanadi. Olingan natija mazkur bobning asosiy natijalarini isbotlashda markaziy o'rin tutadi.

Suningdek, ushbu bob doirasidagi tadqiqotlarda G-V jarayonlarini holatlar fazosi o'tish ehtimolliklarining invariantlik xossalari muhim ahamiyat kasb etadi. Invariant o'lchovlar G-V jarayonlarining asimptotik xususiyatlarini tahlil qilishda kuchli vositadir. Ularni o'rganish tarmoqlanish qonuniga ega bo'lgan murakkab tizimlarni yanada chuqurroq tushunish imkoniyatlarini beradi.

Uchinchi bobning birinchi paragrafida klassik adabiyotlarda kritik tarmoqlanuvchi jarayonlar nazariyasining Asosiy Lemmasi deb nomlanuvchi, kritik jarayonlar hosil qiluvchi funksiyasining asimptotik yoyilmasini ifodalovchi tasdiqning minimal shartlardagi yangi analoglarini topildi.

Mazkur bob davomida quyidagi asosiy shart qabul qilinadi: $\mathcal{L}(\cdot)$ qoldiq hadli sekin o'zgaruvchi funksiya, ya'ni $\mathcal{L}(\cdot) \in \mathcal{S}_\infty(\omega)$ va qoldiq hadi ko'rinishi $\omega_\lambda(x) = o\left(x^{-\nu}\mathcal{L}(x)\right), \quad x \to \infty$.

Biz hosil qiluvchi funksiyasi $[f_\nu]$ ko'rinishda bo'lgan $\left\{Z_n, n \in \mathbb{N}_0\right\}$ kritik tarmoqlanuvchi G-V jarayonini qaraymiz. Ushbu $\Lambda(y) := y^\nu \mathcal{L}\left(1/y\right)$ funksiya yordamida $[f_\nu]$ shartni ushbu

$$f(s) = s + (1-s)\Lambda(1-s) \qquad [\Lambda_\nu]$$

ko'rinishda yozib olamiz. Ta'rifga ko'ra $\Lambda(y)$ funksiya $y \in (0{,}1]$ qiymatlarda musbat aniqlangan regulyar o'zgaruvchi funksiyadir. Bu funksiya, $y \downarrow 0$ da nolga intiladi va aniqlanish sohasida monoton hosilaga ega bo‘lib, $y \downarrow 0$ da $y\Lambda'(y) / \Lambda(y) \to \nu$.

Asosiy Lemmaning takomillashtirilgan analogi bo‘lgan quyidagi natijani isbotlandi.

2-lemma. *Kritik G-V jarayon* $[\Lambda_\nu]$ *shart bilan berilgan bo‘lsin. Agar ixtiyoriy* $\lambda \in \mathbb{R}_+$ *uchun* $\omega_\lambda(x) := \mathcal{L}(\lambda x) / \mathcal{L}(x) - 1$ *funksiya uchun ushbu* $\omega_\lambda(x) = o\left(x^{-\nu}\mathcal{L}(x)\right)$, $x \to \infty$ *asimptotik baho bajarilsa, u holda quyidagi asimptotik munosabat o‘rinli bo’ladi*:

$$\frac{1}{\Lambda\left(R_n(s)\right)} - \frac{1}{\Lambda(1-s)} = \nu n + \frac{1+\nu}{2} \cdot \ln\left[\lambda_n(s)\right] + \rho_n(s),$$

bunda $\lambda_n(s) = \Lambda\left(1-s\right)\nu n + 1$ *va* $\rho_n(s) = o\left(\ln n\right) + \sigma_n(s)$ *hamda barcha* $s \in [0,1)$ *qiymatlar uchun* $\sigma(s) := \lim_{n\to\infty} \sigma_n(s) < \infty$.

Lemmada keltirilgan asimptotik formula tarmoqlanish qonuni uchinchi tartibli faktorial momenti $f'''(1-)$ chekli bo‘lgan jarayonlar uchun T.Xarrisning “Теория ветвящихся случайных процессов”(**1966**) monografiyasidagi natijani shu ma’noda kuchaytiradiki, ushbu monografiyada lemma tasdig‘i bo‘lgan asimptotik formula $\Lambda(y) \equiv y$ bo‘lgan holda va tenglikning o‘ng tomoni $\frac{1}{2} f''(1-)n + \mathcal{O}\left(\ln n\right)$ ko‘rinishda topilgan.

Uchinchi bobning ikkinchi paragrafida tarmoqlanish qonuni $[\Lambda_\nu]$ ko‘rinishdagi hosil qiluvchi funksiya bilan berilgan kritik tarmoqlanuvchi G-V jarayonlar hosil qiluvchi funksiyasining asimptotikasini va ular uchun invariant o‘lchovlar mavjudligi masalasi o‘rganilgan.

Ushbu $u_n(s) = \dfrac{f_n(s) - f_n(0)}{f_n(0) - f_{n-1}(0)}$ Slack funksiyasini $[\Lambda_\nu]$ shartga ko‘ra ushbu $U_n(s) = \dfrac{1}{\Lambda\left(Q_n\right)}\left[1 - \dfrac{R_n(s)}{Q_n}\right]$ ko‘rinishda yozib olamiz. Ikkinchi bobning 4-paragrafida aytib o‘tilganidek, barcha $s \in [0,1)$ qiymatlar uchun $U(s) := \lim_{n\to\infty} U_n(s)$ limit funksiya mavjud, va u $U(f(s)) = U(s) + 1$ Abel tenglamasini qanoatlantiradi. Bu funksiyani $U(s) = \sum_j u_j s^j$ darajali qator ko‘rinishda ifodalasak, Abel tenglamasidan ushbu $u_j = \sum_i u_i P_{ij}(n)$ tenglama kelib chiqadi, bunda $P_{ij}(n) = \mathsf{P}\left(Z_n = j \middle| Z_0 = i\right)$. Bu tenglama $\left\{u_j\right\}$ sonlarning $P_{ij}(\cdot)$ ehtimolliklariga nisbatan invariantlik xossasini ifodalaydi.

Quyidagi teorema invariant o‘lchovning hosil qiluvchi $U(s)$ funksiyasining ko‘rinishi haqida ma’lumot beradi.

6-teorema. *Kritik tarmoqlanuvchi G-V jarayonlarining hosil qiluvchi funksiyasi* $[\Lambda_\nu]$ *ko'rinishda bo'lib,* $\omega_\lambda(x) = o\left(x^{-\nu}\mathcal{L}(x)\right)$ *bo'lsin. U holda* $\left\{u_j\right\}$ *invariant o'lchovning hosil qiluvchi funksiyasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:*

$$U(s) = \int_0^s \frac{\psi(y)}{(1-y)\Lambda(1-y)}\,dy,$$

bunda $\psi(s)$ *funksiya* $s \in [0,1)$ *qiymatlarda uzluksiz va* $f'(s) \le \psi(s) \le 1$.

Uchinchi bobning uchinchi paragrafida immigratsiyali kritik tarmoqlanuvchi jarayonlarning asimptotik va invariantlik xossalari o'rganilgan.

Dastlab $f(s)$ va $h(s)$ funksiyalar, mos ravishda,

$$f(s) = s + \left(1-s\right)^{1+\nu}\mathcal{L}\left(\frac{1}{1-s}\right) \qquad [f_\nu]$$

va

$$1 - h(s) = \left(1-s\right)^{\delta}\ell\left(\frac{1}{1-s}\right) \qquad [h_\delta]$$

ko'rinishga ega bo'lsin, bunda $\nu, \delta \in (0,1)$ va $\mathcal{L}(\cdot), \ell(\cdot) \in \mathcal{S}_\infty$. Ushbu paragrafda $\delta > \nu$ hol, ya'ni holatlar fazosi $\mathcal{S}$ – ergodik bo'lgan hol qaralgan.

Keyingi mulohazalarda $\mathcal{L}(\cdot) \in \mathcal{S}_\infty$ va $\ell(\cdot) \in \mathcal{S}_\infty$ funksiyalar uchun quyidagi qo'shimcha shartlarni qabul qilamiz.

$$\mathcal{L}(\cdot) \in \mathcal{S}_\infty(\omega) \quad \text{va} \quad \omega(x) = o\left(\frac{\mathcal{L}(x)}{x^\nu}\right), \quad x \to \infty; \qquad [\mathcal{L}_\omega]$$

$$\ell(\cdot) \in \mathcal{S}_\infty(\sigma) \quad \text{va} \quad \sigma(x) = o\left(\frac{\ell(x)}{x^\delta}\right), \quad x \to \infty. \qquad [\ell_\sigma]$$

Bu shartlarda, $\mathcal{L}(\cdot) \in \mathcal{S}_\infty(\omega)$ va $\ell(\cdot) \in \mathcal{S}_\infty(\sigma)$ funksiyalar quyidagi xossalarga ega.

3-lemma. *Agar* $[f_\nu]$ *va* $[h_\delta]$ *hosil qiluvchi funksiyalar bilan aniqlangan GVI jarayoni ergodik zanjir tashkil etsa hamda* $[\mathcal{L}_\omega]$ *va* $[\ell_\sigma]$ *shartlar bajarilsa,* $C_\mathcal{L} = \lim_{x\to\infty}\mathcal{L}(x) < \infty$ *va* $C_\ell = \lim_{x\to\infty}\ell(x) < \infty$ *bo'lib,* $x \to \infty$ *bo'lganda ushbu*

$\mathcal{L}(x) = C_\mathcal{L} + o\left(x^{-\nu}\right)$ *va* $\ell(x) = C_\ell + o\left(x^{-\delta}\right)$ *yoyilmalar o'rinli bo'ladi.*

Belgilash kiritamiz: $\mathcal{P}_n(s) := \mathcal{P}_n^{(0)}(s)$.

7-teorema. *Kritik GVI jarayonlari* $[f_\nu]$ *va* $[h_\delta]$ *ko'rinishdagi hosil qiluvchi funksiyalar bilan aniqlangan bo'lsin. U holda*

1) *agar* $[\mathcal{L}_\omega]$ *shart bajarilsa,*

$$\mathcal{P}_n(s) = \Delta_n(s)\exp\left\{\int_s^{f_n(s)}\frac{\psi(y)\ln h(y)}{(1-y)\Lambda(1-y)}\,dy\right\},$$

bunda $\Lambda(y)=y^{\nu}\mathcal{L}\left(1/y\right)$, $\dfrac{h(s)}{h(f_n(s))}\le\Delta_n(s)\le 1$ *va* $\psi(s)$ *funksiya Teorema 6 da aniqlangan.*

2) *agar, qo'shimcha ravishda,* $[h_\delta]$ *shart bajarilib,* $\delta>\nu$ *bo'lsa,*

$$\mathcal{P}_n(s)=\beta_n(s)\Delta_n(s)\exp\left\{-\int_s^{f_n(s)}\frac{1-h(y)}{(1-y)\Lambda(1-y)}\psi(y)dy\right\},$$

bunda $\exp\left\{-\dfrac{1}{h(s)}\displaystyle\int_s^{f_n(s)}\frac{[1-h(y)]^2}{(1-y)\Lambda(1-y)}dy\right\}\le\beta_n(s)\le 1$.

Quyidagi tasdiq $p_{00}^{(n)}$ lokal ehtimollik uchun Peyksning ishidagi natijani yaxshilaydi.

8-teorema. *Kritik GVI jarayonlari* $[f_\nu]$ *va* $[h_\delta]$ *ko'rinishdagi hosil qiluvchi funksiyalar bilan aniqlangan bo'lsin va* $\gamma:=\delta-\nu>0$. *U holda shunday* $\mathsf{L}_\gamma(\cdot)\in\mathcal{S}_\infty$ *funksiya topiladiki,* $n\to\infty$ *bo'lganda* $\mathsf{L}_\gamma(n)\sim\mathsf{L}(n)\mathcal{L}^{-\gamma/\nu}(n)$ *va*

$$p_{00}^{(n)}=A\exp\left\{-\mathcal{J}+\frac{1}{\gamma}\frac{1}{(\nu n)^{\gamma/\nu}}\mathsf{L}_\gamma\left(n^{1/\nu}\right)\left(1+o(1)\right)\right\},$$

bunda $A=\lim_{n\to\infty}\beta_n(0)\Delta_n(0)\le 1$ *va* $\mathcal{J}=\int_1^{\infty}y^{-(1+\gamma)}\mathsf{L}(y)dy<\infty$. *Agar* $[\mathcal{L}_\omega]$ *va* $[\ell_\sigma]$ *shartlar bajarilsa,* $\mathsf{L}_\gamma(n)\to C_\gamma$, *bunda* $C_\gamma=C_\ell C_{\mathcal{L}}^{-\delta/\nu}$ *bo'lib,* $C_{\mathcal{L}}$ *va* C_ℓ *o'zgarmaslar Lemma 3 da aniqlangan.*

Ushbu teoremada $\mathcal{P}_n(s)$ funksiyaning $\pi(s):=\lim\limits_{n\to\infty}\mathcal{P}_n(s)$ limit funksiyaga yaqinlashish tezligini baholangan.

9-teorema. *Kritik GVI jarayonlari* $[f_\nu]$ *va* $[h_\delta]$ *hosil qiluvchi funksiyalar bilan aniqlangan bo'lsin va* $\gamma:=\delta-\nu>0$. *U holda barcha* $s\in[0,d]$, $d<1$, *qiymatlarda* $\mathcal{P}_n(s)$ *funksiya* $\pi(s)$ *funksiyaga yaqinlashadi. Shuningdek,* $\pi(s):=\sum_{j\in\mathcal{S}}\pi_j s^j$ *darajali qatordagi* $\{\pi_j\}$ sonlar $p_{ij}^{(n)}$ *o'tish ehtimoliklariga nisbatan limit-invariant taqsimot yaratadi. Agar* $[\mathcal{L}_\omega]$ *va* $[\ell_\sigma]$ *shartlar bajarilsa,*

$$\mathcal{P}_n(s)=\pi(s)\left(1+C_\gamma\cdot\Theta_n(s)\right),$$

munosabat o'rinli, bunda C_γ *o'zgarmas son Teorema 8 da aniqlangan va*

$$\Theta_n(s)=\frac{1}{\gamma}\frac{1}{\left(\nu_n(s)\right)^{\gamma/\nu}}\left(1+\mathcal{O}\left(\frac{\ln n}{n}\right)\right),\quad n\to\infty,\text{bunda } \nu_n(s)=\nu n+\Lambda^{-1}(1-s).$$

Quyidagi teoremaning tasdig'i $\pi(s)$ hosil qiluvchi funksiyaning $s=1$ nuqta atrofidagi asimptotik ko'rinishini ifodalaydi.

10-teorema. *Kritik GVI jarayonlari* $[f_\nu]$ *va* $[h_\delta]$ *hosil qiluvchi funksiyalar bilan aniqlangan va* $\gamma := \delta - \nu > 0$ *bo'lsin. Agar* $[\mathcal{L}_\omega]$ *va* $[\ell_\sigma]$ *shartlar bajarilsa,*

$$-\ln \pi(s) = \mathsf{CL}\,\frac{1}{\gamma}(1-s)^\gamma\Big(1+o(1)\Big), \qquad s \uparrow 1,$$

bunda $\mathsf{CL} = \mathsf{L}(\infty)$ *o'zgarmas son Lemma 3 dan kelib chiqadi.*

XULOSA

Ushbu dissertatsiya ishida dispersiyasi cheksiz bo‘lgan diskret vaqtli tarmoqlanuvchi tasodifiy jarayonlarning asimptotik tuzilishi va ular uchun limit teoremalar olingan. Umuman olganda, olingan natijalar ushbu ishda maqsadga erishilganidan dalolat beradi. O‘z navbatida, olingan barcha natijalar yangi va ushbu natijalar orqali tasodifiy jarayonlar nazariyasi, tibbiyot, demografiya va matematik modellashtirish sohalariga ma’lum hissa qo‘shish mumkin.

Tadqiqotning asosiy natijalari quyidagilardan iborat:

- cheksizlikda regulyar o‘zgaruvchi funksiyalar xosmas integrallarining asimptotik xossalarini ifodalovchi teoremalar keltirilgan va isbotlangan;
- kritik tarmoqlanuvchi tasodifiy jarayonning reproduktiv qonunining dispersiyasi cheksiz bo‘lgan hol uchun asosiy lemmaning analoglari keltirilgan va isbotlangan;
- ma’lum shartlar bajarilganda kritik Galton-Vatson immigratsiyali tarmoqlanuvchi tasodifiy jarayonlari hosil qiluvchi funksiyasining ko‘rinishi topilgan;
- Galton-Vatson immigratsiyali tarmoqlanuvchi tasodifiy jarayonining boshlang‘ich holatga qaytish ehtimolligining asimptotikasi aniqlangan;
- Galton-Vatson immigratsiyali tarmoqlanuvchi tasodifiy jarayonlari hosil qiluvchi funksiyasini o‘zining limit funksiyasiga yaqinlashish tezligi baholangan;
- invariant o‘lchov tashkil etuvchi hosil qiluvchi funksiyaning 1 nuqta atrofidagi asimptotik ko‘rinishi topilgan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.02/30.12.2019.FM.86.01
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
ИНСТИТУТЕ МАТЕМАТИКИ ИМЕНИ В.И. РОМАНОВСКОГО**

КАРШИНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ТУХТАЕВ ЭРКИН ЭГАМБЕРДИЕВИЧ

АСИМПТОТИЧЕСКАЯ СТРУКТУРА ВЕТВЯЩИХСЯ СЛУЧАЙНЫХ ПРОЦЕССОВ С ДИСКРЕТНЫМ ВРЕМЕНЕМ И БЕСКОНЕЧНОЙ ДИСПЕРСИЕЙ

01.01.05 – Теория вероятностей и математическая статистика

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент–2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве Высшего образования, Науки и Инноваций Республики Узбекистан за B2025.3.PhD/FM1343

Диссертация выполнена в Каршинского государственного университета

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета по адресу (http://kengash.mathinst.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (http://www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Имомов Аъзам Абдурахимович** доктор физико-математических наук, профессор
Официальные оппоненты:	**Мирахмедов Шерзод Адилович** доктор физико-математических наук, профессор
	Азимов Жахонгир Бахрамович кандидат физико-математических наук, доцент
Ведущая организация:	**Ташкентский государственный университет экономики**

Защита диссертации состоится « 16 » декабря 2025 г. в 17:00 часов на заседании Научного совета DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 при Институте Математики имени В.И. Романовского. (Адрес: 100174, г. Ташкент, Алмазарский район, ул. Университетская, 9.Тел.: (+99871) 207-91-40, e-mail: uzbmath@umail.uz, Website: www.mathinst.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Института Математики имени В.И.Романовского (зарегистрирована за № 218). (Адрес: 100174, г. Ташкент, Алмазарский район, ул. Университетская, 9.Тел.: (+99871) 207-91-40).

Автореферат диссертации разослан « 02 » декабря 2025 г.
(протокол рассылки № 2 от « 02 » декабря 2025 г.).

У.А. Розиков
Председателя Научного совета по присуждению ученых степеней, д.ф.-м.н., академик

Ж.К. Адашев
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, д.ф.-м.н., старший научный сотрудник

Я.М. Хусанбаев
Заместитель председателя Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, д.ф.-м.н., доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Во всем мире значительная часть современных научно-практических исследований в области фундаментальных наук сводится к применению теории ветвящихся случайных процессов. Теория ветвящихся процессов представляет собой раздел математики, обладающий широким спектром теоретических и прикладных применений, изучающий закономерности эволюции популяций частиц, развивающихся согласно некоторому закону распределения. Возникнув в 1940-х годах XX века как самостоятельное научное направление, данная теория благодаря прикладной и наглядной природе изучаемых ею явлений и задач продолжает оставаться активно развивающейся областью современной теории вероятностей. Она до сих пор является предметом исследований по многим вопросам теоретической физики, молекулярной биологии, химии, демографии и медицины.

Расширение области применения теории ветвящихся случайных процессов связано как с её теоретическим интересом, так и с практической значимостью. В настоящее время данная теория используется, в частности, для описания законов эволюции различных биологических популяций, решения задач теории массового обслуживания, а также исследования множества других природных и технических явлений, связанных с эволюцией популяций частиц. Развитие теории обусловлено, с одной стороны, необходимостью глубокого изучения классических моделей, а с другой — поиском новых схем рождения частиц, которые более точно отражают сущность изучаемых реальных явлений. В связи с этим актуальной задачей является поэтапное совершенствование существующих результатов, направленных на уточнение классических моделей и получение новых результатов, наиболее адекватных объективным условиям.

В нашей стране уделяется особое внимание фундаментальным наукам, имеющим прикладное значение. Перед современной наукой стоит важная задача — сближение фундаментальных исследований с практикой. В решении данной проблемы теория ветвящихся процессов может занять одно из ведущих мест. В рамках её применения к решению актуальных задач различных областей уже достигнуты значительные результаты. В постановлении Кабинета Министров отмечено, что к числу приоритетных направлений математических наук относятся исследования в области теории вероятностей и математической статистики на уровне международных стандартов, что определено как одна из главных задач и направлений научной деятельности. В этом контексте развитие дальнейших исследований[1] по теории ветвящихся случайных процессов имеет важное значение для реализации данного решения.

---

[1] Постановление Президента Республики Узбекистан, от 09.07.2019 г. № ПП-4387 «О мерах государственной поддержки дальнейшего развития математического образования и науки, а также коренного совершенствования деятельности института Математики имени В.И. Романовского Академии наук Республики Узбекистан»

Диссертационная работа выполняется в соответствии с Указом Президента Республики Узбекистан от 7 февраля 2017 года № ПФ–4947 «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан», Постановлением Президента от 9 июля 2019 года № ПҚ–4387 «О мерах по дальнейшей поддержке и развитию математического образования и науки, а также по коренному совершенствованию деятельности Института математики имени В. И. Романовского Академии наук Республики Узбекистан» и Постановлением от 7 мая 2020 года № ПҚ–4708 «О мерах по повышению качества образования и развитию научных исследований в области математики», а также другими нормативно-правовыми документами, регулирующими данную сферу. Таким образом, результаты настоящего исследования в определённой степени способствуют реализации поставленных задач.

